

PEDOGOGIK MAHORAT HAQIDA TUSHUNCHA, UNING O'QITUVCHI FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Erkinova Mohinur Berdiyori qizi

Fan va texnologiyalar universiteti

“Boshlang'ich ta'lim” kunduzgi

1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10663037>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik mahoratni shakllantirishning ustuvor g'oyalarini tadbiq etishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: metod, mahorat, madaniyat, kasb, matonat, tafakkur, fikr, malaka, tajriba.

Yurtboshimiz SH.M.Mirziyoyevning fikri “O'qituvchi va murabbiylar –yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir”. Darvoqea, biz 3-rensans davrini qurmoqda ekanmiz, biz pedagoglar, ziyolilar va kelajak avlod bilan birgalikda quramiz. O'qituvchilarni bola qalbining me'mori deb atashgan. Ya'ni o'qituvchi me'mor bo'sa, o'quvchi bir imoratdir. Me'mor imoratning chizmasini, loyihasini, andozasini chizadi, o'chiradi, yana chizadi, SHunday qilib chiroyli bir ko'rinishga keltiradi. Me'mor imoratning poydevorini mustahkam qilib qurishdan boshlaydi. Imoratni quradi, bitkazadi, imoratni ichini, sirtini bezaydi, shaklga keltiradi va bekami ko'st qilib yashash holatiga keltiradi va undan insonlar foydalanadi. O'qituvchi va o'quvchi ham shunday. O'qituvchi ilk bor bola qalbiga mehr urug'ini ekadi. Yosh bolani qo'lidan ushlab yozishni, o'qishni o'rgatadi, toki u komil inson bo'lgunga qadar buyuk bir vazifani amalga oshiradi.

Pedagogik mahorat-bu o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkel etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, talabalarda ya'ni o'quvchilarda dunyoqarash qobiliyatini shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo'gan faoliyatga moyillik uyg'otishdir. Pedagogik mahorat tushinchasi Pedagogik ensiklopediyada ta'rif quyidagicha izohlangan; o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis. Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin;

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aqlzakovatning yuksak ko'rsatkichi.
2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.
4. O'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'gan asosiy komponentlardan iborat;

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi.
2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.
3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.
4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

“Dunyo binolari ichida eng buyugi maktab bo'lsa, kasblarning orasida eng sharaflisi o'qituvchi va murabbiylikdir” birinchi Prezidentimiz I.Karimov hikmatli so'zlari. Darhaqiqat kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi

yosh avlod qalbi kamolotining me'mori, yoshlarga ta'lim tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas'uliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirib borish, ularga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, zarur shart-sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy-metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish lozim.

Pedagogik mahoratni egallash vositalari

O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyat bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahorat qirralarini namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida barkamol insonni tarbiyalashga, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur. Hozirgi paytda O'zbekiston respublikasida yosh o'qituvchilarning kasbiy mahoratini, bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish maqsadida qizg'in faoliyat olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi hamda osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda amalga oshiralayotgan "ta'lim sektorini rivojlantirish dasturi" loyihasi doirasida respublika hududlarida masofadan o'qitishning "ta'lim resurs" markazlari tashkil etilgan. Ushbu faoliyat natijasida yosh o'qituvchilarning xorijiy mamlakatlarda kasbiy malakalarini oshirish imkoniyati tug'ildi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da barkamol, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash hamda komil inson g'oyasi-milliy va umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy ezigulikka undaydigan oliyjanob g'oya sifatida ulug'langan. Mazkur g'oyani yosh avlod ongiga singdirishda o'qituvchi kadrlarni o'rni beqiyos. Bu esa ulardan avvalo mukammal kasb qobiliyatiga ega bo'lishni, bilimi, mahorati, ilmiy nazariy va amaliy salohiyatidan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek; "Biz iqtisodiy o'nglanish iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma'naviy o'nglash, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tomomila uyg'un bo'lishni istayotgan bir davrda yashayapmiz. Bu istak esa yoshlar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kasb egalarini yuksak kasbiy tayyorgarlikka, g'oyaviy-siyosiy e'toqodga, tashkilotchilik va boshqaruvchilik malakalariga ega bo'lish lozimligini taqozo qilmoqda. Shu bilan birga pedagogik ta'sir ko'rsatish ham katta ahamiyat kasb etadi. Pedagogik ta'sir ko'rsatish tarbiyalanuvchiga ongli intizom va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish, tarbiyani ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir ko'rsatish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning xulq atvori va dunyoqarashini takomillashtirish, yosh avlodni muayyan maqsad asosida tarbiyalash, ijtimoiy ong va xulq-atvorni xalqimizning boy mafkuralari asosida shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Pedagogik ta'sir ko'rsatish asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his tuyg'ulari rivojlanadi, unda ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

O'qituvchi o'z kasbiga qiziqmasa, o'quvchilarga nisbatan mehr-muhabbatli bo'lmasa, ular bilan qizg'in muloqot qila olish qobiliyati, ya'ni kommunikativ xususiyatlari rivojlanmaydi. Uzoq yillar davomida pedagogika sohasida olib borilgan tajribalar shundan dalolat beradiki kommunikativ faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun, o'qituvchining integral fanlar asoslarini va o'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini chuqur bilishi yetarli emas. Zero, u bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalarini o'quvchilarga faqat bevosita jonli muloqot vositasida bera oladi. O'qituvchi va o'quvchilarning jonli muloqoti, ta'lim muassalarida pedagogik faoliyatning muhim sharti va mazmuni sifatida namayon bo'ladi. Kasbiy-pedagogik muloqot deganda, o'qituvchi va ta'lim-tarbiya jarayoni obyektlarning o'zaro hamkorlik tizimi tushuniladi, uning asosiy faoliyat mazmuni o'zaro axborot almashish shaxsni bilish, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish sanaladi. O'qituvchi bu jarayonni faollashtiruvchisi sifatida maydonga chiqadi, uni tashkil etadi va boshqaradi.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, biz bo'lajak pedagoglar o'z ustimizda ishlab Yangi O'zbekistonni barpo etadigan mahoratli kadrlar bo'lishimiz bizning burch va vazifamizdir.

References:

1. Abdurahmonov F., Davletshin M. Odamlar bilan qanday muloqotga kirishish va yondashish kerak. T.: 1996.
2. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri» tuzuvchi M. Mahmudov. T.: Xalq me'rosi, 1993.
3. Adizova S. O'qituvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari. T.: 2002.
4. Адизова Т., Усмонова Е. Психологические трудности в обучении младших школьников. Т.: 1995.
5. Axmedjanov E.R. Psixologiya testi. 1996.
6. www.SlideToDoc.com
7. www.A.Xoliqovning "Pedagogik mahorat" kitobidan.